

**IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TASHQI VA ICHKI BANK  
KREDITLARINING TA'SIRI**

*Abduraimov Javohir*

*Andijon davlat texnika instituti*

*Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv*

*fakulteti “Iqtisodiyot (Tarmoqlar*

*va sohalari)” yo’nalishi*

*4-kurs K-111-21 guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar:X.A.Mo‘ydinov*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tashqi va ichki bank kreditlarining iqtisodiy o’sish jarayonidagi o’rni va ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Iqtisodiyotni rivojlanirishda mahalliy moliya manbalarining yetarli emasligi ko‘pincha tashqi kreditlarga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Shu bilan birga, ichki bank kreditlash tizimi milliy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda asosiy vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda ichki va tashqi kredit manbalarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri va rivojlanish istiqbollari o‘rganiladi. Tahlil jarayonida banklar faoliyatining kreditlash siyosati, risklarni boshqarish mexanizmlari, davlatning tartibga solish roli hamda xalqaro tajribalar asosida takliflar ishlab chiqiladi. Maqola natijalari O‘zbekistonning zamonaviy bank tizimi orqali iqtisodiy o’sishni barqarorlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilashga oid tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so’zlar:** tashqi kreditlash, ichki kreditlash, bank tizimi, iqtisodiy o’sish, moliyalashtirish, risklarni boshqarish, investitsiya, davlat tartibga solishi, xalqaro tajriba, barqarorlik.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматривается роль и значение внешнего и внутреннего банковского кредитования в процессе экономического роста. Недостаточность внутренних финансовых ресурсов часто обуславливает необходимость привлечения внешних кредитов, в то время как система внутреннего банковского кредитования рассматривается как основной инструмент обеспечения национальной экономической стабильности. В ходе исследования анализируется взаимосвязь источников внутреннего и внешнего кредитования, их влияние на экономическую эффективность и перспективы развития. В статье изучается кредитная политика банков, механизмы управления рисками, роль государственного регулирования и на основе международного опытарабатываются соответствующие предложения. Результаты исследования направлены на стабилизацию экономического роста Узбекистана и улучшение инвестиционного климата посредством эффективного функционирования современной банковской системы.

**Ключевые слова:** внешнее кредитование, внутреннее кредитование, банковская система, экономический рост, финансирование, управление рисками, инвестиции, государственное регулирование, международный опыт, стабильность.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of external and internal bank lending in economic development. Insufficient domestic financial resources often increase the need for external loans, while the domestic bank lending system serves as a fundamental tool for ensuring national economic stability. The research examines the interrelation between internal and external credit sources, their impact on economic efficiency, and prospects for sustainable growth. The study covers bank lending policies, risk management mechanisms, the government's regulatory role, and proposes recommendations based on international practices. The findings aim to offer practical insights for stabilizing Uzbekistan's economic growth and improving the investment climate through an efficient modern banking system.

**Keywords:** external lending, internal lending, banking system, economic growth, financing, risk management, investment, government regulation, international experience, stability.

## KIRISH

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan murakkab integratsiya jarayonlari, moliya bozorlarining globallashuvi va kapital harakatining erkinlashuvi davlatlarning o‘z iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda samarali kreditlash tizimiga ega bo‘lishini talab etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun ichki moliyaviy manbalarning yetishmasligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi va investitsiya muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi tashqi kredit mablag‘larini jalb etishni zaruriy omilga aylantiradi. Shu bilan birga, ichki bank kreditlari milliy iqtisodiyotning ichki imkoniyatlarini safarbar etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim moliyaviy manba sifatida qaraladi. Mazkur maqolada tashqi va ichki bank kreditlash tizimining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi, kreditlash siyosatini samarali tashkil etish yo‘llari, risklarni boshqarish mexanizmlari va xalqaro tajribalar asosida milliy tajribaga mos tavsiyalar ishlab chiqiladi. O‘zbekistonning hozirgi bank tizimi faoliyatini chuqr o‘rganish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda bank kreditlarining o‘rni masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan, iqtisodiy nazariya vakillari — J.

M. Keynes va uning izdoshlari tomonidan moliyaviy resurslarning muhimligi va investitsiya jarayonlariga ta'siri ilk bor chuqur tahlil qilingan. Zamonaviy tadqiqotchilar — S. Mishkin, F. Modigliani va R. Levine ishlarida moliya vositalari, xususan, bank kreditlarining iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi mexanizmlari yoritilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar A. Xodjayev, Sh. Ortikov va A. Axmedov tomonidan ichki bank kreditlash tizimining rivojlanishi, uning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi hamda mavjud muammolar chuqur o'rganilgan. Shu bilan birga, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Osiyo Taraqqiyot Banki kabi xalqaro moliyaviy institutlarning statistik ma'lumotlari va tavsiyalari ham ushbu tadqiqotda tahliliy manba sifatida qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil hamda grafik va jadval usullari asosida ilmiy-nazariy izlanishlar olib borildi. Avvalo, ichki va tashqi bank kreditlashning asosiy ko'rsatkichlari va ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari o'rganildi, O'zbekiston bank tizimi misolida amaliy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, ilg'or xalqaro tajribalar asosida milliy kreditlash amaliyotini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur metodlar asosida olingan natijalar iqtisodiy barqarorlik va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirishga imkon berdi.

## NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar natijasida ichki va tashqi bank kreditlashning iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi asosiy o'rni va ta'sir doirasi aniqlandi. Birinchidan, ichki bank kreditlari mamlakat ichki imkoniyatlarini safarbar etish, xususan, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda yangi ish o'rnlari yaratishda muhim manba sifatida xizmat qilayotgani isbotlandi. Mahalliy banklarning kredit portfeli tarkibini chuqur o'rganish, imtiyozli kredit liniyalari va garov siyosati mavjud muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, tashqi kredit mablag'lari davlat miqyosidagi yirik infratuzilma loyihibalarini amalga oshirish, energetika, transport va sanoat tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda asosiy moliyaviy manba sifatida qo'llanilayotgani tahlilda ko'rsatib berildi. Shu bilan birga, tashqi qarz mablag'larining ortiqcha ko'payishi davlat qarzi yukini oshirishi mumkinligi, bu esa iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini yuzaga keltirishi aniqlashtirildi.

Uchinchidan, tahlillar O'zbekistonning bank kreditlash tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni moslashtirish zarurligini ko'rsatdi. Jumladan, kreditlash jarayonida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, kredit foiz stavkalarini maqbullashtirish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash lozimligi ta'kidlandi.

Tadqiqot davomida bank kreditlash bozorining shaffofligini oshirish, elektron kreditlash xizmatlarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali ichki kreditlash salohiyatini yanada kuchaytirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar O‘zbekistonning moliya tizimi barqarorligini mustahkamlash hamda umumiy iqtisodiy o‘sishga barqaror hissa qo‘sish imkoniyatlarini olib beradi.

### **MUHOKAMA**

Olingan natijalar asosida ichki va tashqi bank kreditlashning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini chuqur muhokama qilish jarayonida bir qator muhim jihatlar aniqlashtirildi. Avvalo, ichki bank kreditlash tizimi O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligining assosiy tayanchi hisoblanadi. Mahalliy banklar tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar korxonalarning aylanma mablag‘larini shakllantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ichki kreditlashning mavjud kamchiliklari — yuqori foiz stavkalar, garov talablarining murakkabligi va kreditlash jarayonidagi ortiqcha byurokratiya tadbirkorlik faoliyatini cheklayotgan omillar sifatida baholandi.

Tashqi bank kreditlari esa, asosan, davlat tomonidan yirik strategik loyihalarni moliyalashtirishda qo‘llaniladi. Bu esa milliy infratuzilmani rivojlantirish, energetika resurslarini modernizatsiya qilish va transport-logistika sohalarini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Biroq tashqi qarz mablag‘larining yuqori hajmda jalg qilinishi davlat qarzi yukini oshirishi va to‘lov qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Shu sababli tashqi kreditlash manbalaridan oqilona va maqsadli foydalanish davlat siyosati uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Muhokama davomida xalqaro tajribaga asoslanib, bank kreditlash tizimini takomillashtirish uchun bir qator takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, kreditlash jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, onlayn kreditlash xizmatlarini rivojlantirish, risklarni baholashning zamonaviy modellari va scoring tizimlarini amaliyotga tatbiq etish tavsiya etildi. Shu bilan birga, banklar o‘z kredit portfelini diversifikatsiya qilish, xatarlarni minimallashtirish va milliy valyutadagi kreditlash ulushini oshirishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Xorijiy tajribalar asosida ichki bank tizimida kreditlashning shaffofligini oshirish, mijozlar bilan ochiq muloqot tizimini rivojlantirish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga barqaror zamin yaratilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, davlatning bank sektorini qo‘llab-quvvatlash siyosatini izchil davom ettirish, regulyatorning nazorat funksiyalarini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish eng asosiy vazifalardan biri sifatida ko‘rilmoxda.

### **XULOSA**

Yuqoridagi tahlillar va muhokamalar asosida aniqlanganki, ichki va tashqi bank kreditlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida o‘zaro to‘ldiruvchi va muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ichki kreditlash orqali kichik va o‘rta biznesning moliyaviy ta’minoti kuchayadi, ish o‘rinlari yaratiladi hamda mahalliy ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi. Bu esa ichki bozorni mustahkamlash va aholining farovonligini oshirishga

xizmat qiladi. Shu bilan birga, tashqi bank kreditlari davlatning yirik infratuzilma va strategik tarmoqlarini rivojlantirishda muhim moliyaviy manba sifatida qo'llaniladi. Biroq ularning haddan ziyod ko'payishi davlat qarzi yukini oshirishi va moliyaviy mustaqillikka xavf tug'dirishi mumkinligi sababli, tashqi moliya manbalaridan oqilonan va maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bank kreditlash tizimining samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajribalarni moslashtirish, kreditlash jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va kreditlash portfelini diversifikatsiya qilish zarur. Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va banklar faoliyatining shaffofligini ta'minlash orqali kreditlash tizimining umumiy samaradorligini yanada oshirish mumkin. Shu asosda ichki va tashqi bank kreditlashni uyg'unlashtirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va jadal rivojlanishiga zamin yaratiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Xodjayev A. A. **Bank ishi asoslari.** – Toshkent: "IQTISODIYOT", 2022. – 280 b.
2. Ortiqov Sh. R. **Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.** – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 256 b.
3. Axmedov A. S. **Bank krediti va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.** – Toshkent: "Moliya", 2020. – 198 b.
4. Rustamov R. X. **O'zbekiston bank tizimi va uning rivojlanish istiqbollari.** – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2023. – 240 b.
5. Tursunov B. O. **Moliyaviy boshqaruv va kreditlash siyosati.** – Toshkent: "Innovatsiya Ziyo", 2021. – 210 b.
6. Karimov I. I., Jabborov K. Sh. **Xalqaro moliya va bank ishi.** – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 300 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari (2020–2024 yillar). – <https://cbu.uz/>
8. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi ma'lumotlari: **Uzbekistan Economic Update.** – 2023.
9. Toshpulatov F. A. **Bank kreditlash tizimi va uning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni.** – Toshkent: "Yangi asr avlod", 2024. – 185 b.